



JADID TARAQQIYPARVARI G'OZIY YUNUS PUBLITSISTIKASIDA TOSHKENTNING ESKI SHAHAR QISMIDAGI IQTISODIY JARAYONLARNING YORITILISHI

Alijonov Muslimbek

O'zR VM huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi erkin tadqiqotchisi

Jadid taraqqiyparvari G'oziy Yunusning publitsistik me'rosi hilma-xil va o'ziga xos rang-baranglikka ega bo'lib, unda XX asr boshlaridagi Turkiston sotsial hayotining deyarli barcha jihatlarini qamrab olingan. G'oziy Yunus "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Kambag'allar tovushi", "Zarafshon", "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" gazetalari, "Mushtum", "Mashrab", "Inqilob", "Tong", "Uchqun", "Sharq", "Ishchilar dunyosi" nashrlarda bosilgan publitsistik maqolalari va hajviyalariga "G'oziy Yunus", "Ishchi", "Bog'bon", "G'is", "G'urt", "Nus", "Shiq", "Shapoq mahzum", "Baroqxon talabasi", "Baroqxon tartaragi", "Tayoq", "Shapoq", "Shapaloq", "Otto'rva soqol", "Oqpadar", "Cho'qmor", "Cho'qich", "Qo'rqqoq avliyo", "Sir", "Dilgir" kabi taxalluslardan va "G'", "N", "N-n", "B", "Z", "S" kabi kiptogrammalardan foydalangan¹. Shuningdek olib borilgan tadqiqotlar natijasida G'oziy Yunusning yana "Kishi", "Mal'un", "Mulla Mushfiqiy", "Qalampir", "Sumalak avliyo", "Qo'rqqoq ayyor", "Murtad", "Hormang", "G'in", "O'z kishing" va "Eshimqul" kabi taxalluslar ostida ham ijod qilgani aniqlandi. Sirojiddin Ahmedov "Mashrab" va "Yo'qsul" taxalluslarini ham G'oziy Yunusga nisbat bergan bo'lsa-da, biroq ushbu taxalluslar adibning zamondoshi va do'sti Bois Qorievning (Oltoy) taxalluslar ro'yhatida Rafiq Mo'minov va Ibrohim Toxiriyga, "Yo'qsul" tahallusi esa Bahrom Ibrohimov va G'ulom Is'hoqovlarga tegishli ekanligi qayd etilgan². Shuningdek, No'mon Rahimjonov o'zining "O'zbekiston adabiyotshunoslari" nomli kitobida "Adabiyot quli" tahallusini ham G'oziy Yunusga nisbat bergan. Biroq ushbu tahallus aslida Mirmulla Shermuhammedovga tegishli bo'lgan³.

Bu borada yakuniy xulosa qilish mumkinki, G'oziy Yunus o'ttiz yettita taxallus ostida matbuotdagi faoliyatini olib borgan.

U "Ishtirokiyun", "Turkiston", "Qizil bayroq", "Qizil O'zbekiston", gazetalari, "Tong", "Bilim o'chog'i", "Mushtum", "Maorif va o'qituvchi" jurnallaridagi maqolalari va badiiy ijod na'munalari orqali XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va madaniy shuningdek diniy hayoti tasvirlangan yuzlab maqolalari bilan milliy matbuoitemiz tarixida o'zining ulkan izini qoldirdi.

G'oziy Yunus publitsistikasi ochiqlik, uzluksiz o'tkir tanqid va satira ustiga qurilgan. U ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishini chuqur tahlil qilib bergan va doimo mahalliy xalq manfaatini nuqtayi nazaridan turib vaziyatni baholagan.

G'oziy Yunus iqtisodiy-siyosiy masalarga doir qarashlarini va bu qarashlari aks etgan maqolalarini asosan XX asr boshidagi kommunistik matbuot nashrlari bo'lmish "Ishtirokiyun", "Turkiston" va "Qizil bayroq" gazetalarida e'lon qilib borgan.

¹ Sirojiddin Ahmad. G'oziy Yunus. –T.: Mumtoz so'z. 2017. –B. 30.

² Bois Qoriev (Oltoy). Adabiy taxalluslar haqida. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali // 1967-yil. –B. 52.

³ O'sha manba: –B. 51.



Jumladan muallif o'zining yuqorida nomlari zikr etilgan gazetalarda "Eski shahar ozuq-ovqat komitetidagi mashmashalar", "Eski shahar mashmashalari va yohud jamiyatlarimizning borishi", "Eski shahar mashmashalari va yoxud taqlid zarari", "G'alla monopoliyasi va musulmonlar", "Uezd tinchligi uchun yana bir chora", "Kasabachilik ishi", "Turbuza", "Xalq bekorga qiynalmasun", "Hukumat boshqarmalarini yerlilashtirish", "Yangi usul yerlashdirish" va boshqa shular kabi ko'plab maqolalari bilan XX asr boshidagi Turkiston ayniqsa Toshkentning eski shahar qismidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritib berdi.

G'oziy Yunus "Eski shahar ozuq-ovqat komitetidagi mashmashalar" maqolasida Eski shahar ovqat komiteti faoliyatini tanqid qilib, "Eski shahar ovqat komitetig'a noloyiq kishilarning kiruvlari, ovqat komitetidek nozik va mas'uliyatli bir o'run'ga o'z manfaati shaxsiyasi uchun yashovchi ilmiynatlarning komitet ustollarini band qiluvlarining natijasi eski shahar uchun bir necha o'n millionlab zarar va bir qancha musulmon demokratiyasining vaqtsiz zoe bo'luvlarig'a sabab bo'ldi"⁴ deb yozadi. G'oziy Yunus mahalliy xalq buni yaxshi anglab turgan bo'lsada biroq "g'ayratsizlik" va yana ham to'g'rirog'i "qo'rqqoqlik" natijasida hech qanday e'tiroz bildirilmayotganidan norozi bo'ladi. Muallif ushbu maqolasida yangi va eski shaharda yashovchi ovropalik (ruslar – M. Alijonov) va mahalliy (o'zbeklar – M. Alijonov) o'rtasidagi o'zaro huquq tafovutligi masalasiga ham e'tibor qaratib, "Yangi shahar komitetidan biror kishi norozi bo'lib gazetlarda maqola yozur erkan, tabiiy komitet tarafidan tegishli raddiya yoziladur. Bizni eski shahar komitetining xiyonatlari ko'rsatilgan maqolalar va xalq tarafidan e'tirozlar yozilur erkan, hech bir raddiya yozilmaydur"⁵ deb ta'kidlaydi va hokimiyatning adolatsiz siyosat olib borayotganligini urg'ulaydi.

1919-yildagi tartib taqozosi bo'yicha Oziq-ovqat komitetini isloh qilish, komitetning ishlarini nazorat qilib huquq buzilishiga yo'l qoldirmaslik, bir so'z bilan aytganda ishni to'g'ri yo'lga qo'yish Eski shahar ijroiya qo'mitasining vazifasi bo'lgan. Biroq Eski shahar ijroiya qo'mitasining o'zi ham bu davrda isloh qilinishga muhtoj bo'lganligi sababli ijroiya qo'mitasi ham mahalliy xalqning shikoyat va arizalarini qondirishga doir aytarli bir ishni amalga oshira olmagan. Shuningdek yangi shahar aholisi (ya'ni ruslar yashaydigan qism – M. Alijonov) mahalliy xalqqa qaraganda oziq-ovqat imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Eski shahar aholisi esa bu masalaga jiddiy yondoshmagani va qolaversa hukumatning e'tiborsizligi sabab qiyinchilik ichida kun kechirgan. G'oziy Yunusning bu borada keltirgan raqamlari quyidagicha: "...ikki yuz ming jong'a molik ikki shaharga olti oyda, ya'ni 1918-yil 1-iyuldan to 31 dekabr'g'acha taqsim qilingan ozuq va mollarning miqdorini bu yerda ko'rsataman. Shuning birla eski shahar ovqat komitetidan xalqning foydalanuvi qandayligi o'z-o'zidan ochiq ko'rinsa kerak. Misol uchun, 152,83 put birinch (guruch – M. Alijonov), 4465 put tariq, 9825 put mosh, 994 put kefak, 19007 put kunjara, 14044 put zig'irmoy, 9113 put sabzavot, 2505 put tuz, 28,430 put quruq mevalar, 2446 put sho'lha, 3135 put beda, 1132 put kerosin, 2379 put sobun (sovun – M. Alijonov), 742 dona mol-qo'y, gugurt 98342 quti,

⁴ G'oziy Yunus. Eski shahar ozuq komitetidagi mashmashalar // "Ishtirokiyun" gazetasi. – 1919-yil 12-iyun. – № 111.

⁵ G'oziy Yunus. Eski shahar ozuq komitetidagi mashmashalar // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yil 12-iyun. – № 111.



rezinka kalush 1270 juft, gazlama (chit) 701, 395 gaz, mashina ip 23, 492 dona”⁶. Bu to’g’ridagi ma’lumot eski shahar Oziq-ovqat komiteti tarafidan nashr qilinadigan “Ozuq ishlari” gazetasida e’lon qilingan bo’lsada, ushbu ro’yhatdagi mollardan ba’zilari umuman xalqqa berilmagan. Berilmagan mollar quyidagilardir: birinch, mosh, tariq, sabzavot, beda, kerasin, sovun, qo’y-qo’zi, rezinka kalish, gazlama (chit), mashina ip. Mana bu molar bus-butun berilmagan va qolgan berilganlari ham noto’g’ri ya’ni kam berilgan. Garchi muallif bu tog’rida “Ozuq ishlari” gazetasidan izoh talab qilgan bo’lsa, hech qanday javob ololmagan. Va maqolaning umumiy ruhiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, Ozuq-ovqat komiteti tomonidan berilgan mollarning bunday adolatsiz taqsimoti faqatgina Eski shahar xalqi uchun tadbiriq qilinib, asosan ruslar yashaydigan yangi shahar aholisi uchun bunday qing’irliklar qilinmagan.

Keyinchalik, G’oziy Yunus to’g’ri tahmin qilganidek Oziq-ovqat komiteti va umuman o’lkada hukumat tomonidan amalga oshirilgan noto’g’ri iqtisodiy va ayirmachilik siyosati sabab Turkiston bozorlarida narx-navo oshib ketadi. Bu to’g’rida birgina “Turkiston” gazetasining 1922-yil 1-dekabrdagi 31-sonida chop etilgan “Bozorlarda narxning oshib ketishi munosabati bilan” nomli maqolani eslash kifoya. Maqola imzosiz e’lon qilingan bo’lib, nomalum muallif narx-navoning haddan tashqari oshib ketganligini qayd etib, ayni paytda bunga hech qanday sabab yo’qligini ta’kidlaydi va barcha qimmatchilik sun’iy tarzda yaratilganligiga ishora qiladi: “Keyingi kunlarda har bir narsaning juda oshib ketishi mehnatkashlar va fuqaro uchun qiyin voqeadir. Haqiqatda narxning oshmog’ig’a hech bir sabab yo’qdir”⁷.

1919-yil 4-iyunda 140-sonli dekret qabul qilinib, shundoq ham ocharchilik va qiyinchiliklar ichida yashayotgan Turkiston xalqi qo’lidagi g’allani tortib olish ishlari boshlanadi. G’oziy Yunus ushbu jarayonni “G’alla monopoliyasi” deb atab, ushbu siyosatning yerli xalqqa yetkazadigan zararlari haqida mulohaza yuritadi. Bu dekret e’lon qilingach hukumat tarafidan huquq jihatidan noqoquniy bo’lgan ushbu hatti-harakat musulmon xalq va musulmon dehqonlari o’rtasida katta bir e’tirozlarga sabab bo’ladi. Biroq “..bizning xalqdagi nodonliq sabab ushbu noto’g’ri ishlarga qarshi murojaatlar qilinmadi. Bizning xalq o’z yetushturgan g’allasini hukumat pul to’lamasdan olg’ondan keyin qani bizga kambag’al hukumatning foydasi, kabi so’zlar so’zlab o’lturushdan bo’lakni bilmaydirlar”⁸. 1919 yilning o’rtalariga kelib matbuot sahifalarida g’alla monopoliyasini yoqlab qator maqolalar chop etila boshladi. Hatto Turkistonning hayot-mamot masalasi bo’lgan bu g’alla ustida ushbu siyosat amalga oshirilsagina musulmon xalqi inqirozdan chiqib ketishiga doir chaqiriqlar ham matbuot sahifalarida yangradi. Lekin mualliflarning hech birlari asosli bir dalil ko’rsatmagan holda o’z fikrlarini ommaning fikrlari deya davo qildilar. Ammo G’oziy Yunus davr muhitidan farqli o’laroq g’alla monopoliyasi siyosatining Turkiston xalqi uchun mutlaqo yot va keraksizligini qayd etib “Bizning musulmonning hech bir sinfi monopoliyani yaxshi ko’z birla qarshu olmaydur. Hattoki kundek maishatin ta’min qila olmag’on bir hammol ham monopoliyag’a bus-butun hilofdir (qarshidir).

⁶ G’oziy Yunus. Eski shahar ozuq komitetidagi mashmashalar // “Ishtirokiyun” gazetasi. – 1919-yil 12-iyun. – № 111.

⁷ Bozorlarda narxning oshib ketishi munosabati bilan // “Turkiston” gazetasi. 1922-yil 1-dekabr. – № 31.

⁸ G’oziy Yunus. G’alla monopoliyasi va musulmonlar // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 18-iyul. – № 136.



Xo‘rlikni hayvon ham qabul qilmaydir, musulmonlar inson bo‘lganlari uchun ortiqcha xo‘rliqg‘a chidolmasliklari tabiiydir”⁹ deb yozdi.

Biroq G‘oziy Yunusning ushbu maqolasiga hukumat zarracha ham e‘tibor bermadi. Natijada Turkiston ASSRdagi oziq-ovqat to‘plovchi otryadlar 1920-1921-xo‘jalik yilida mahalliy aholi qo‘lidan 9708703 pud g‘alla, 6358144 pud yem-xashak, 1 606210 pud go‘sh va boshqa mahsulotlarni tortib oldi. Tortib olingan oziq-ovqat mahsulotlari Rossiyaga jo‘natilar edi. 1921 yil 18 iyulda bo‘lgan oziq-ovqat xalq komissarligi hay‘ati majlisida Malyutin ma‘ruza qilib, “o‘n kunlik muddat ichida 250 000 pud oziq-ovqat markazga yuborilsin degan Leninning jangovar buyrug‘ini o‘qib eshittirdi”. Leninning buyrug‘i kelmasdan bir necha kun oldin Turkiston XKS Orenburgga 20 vagon g‘alla, 2 vagon guruch, quruq mevalar (shuningdek, Samarqand va Poltorask garnizonlari uchun 16 vagon) va Orol dengizi balig‘idan bir necha vagon yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. “O‘lganning ustiga tepgan” qilib, bu topshiriqlar Leninning jangovar buyrug‘i bilan yanada kuchaytirildi. Shunday qilib, Turkistonda g‘alla monopoliyasi va oziq-ovqat razvyorstkasi (taqsimoti) natijasida mahalliy aholi qo‘lidan: a) 1918-1919 yillarda zo‘rluk va tovar ayirboshlash (aslida dehqonga hech narsa berilmagan edi) yo‘li bilan 4500000 pud; b) 1919-1920 yillarda tovar monopoliyasi va tovar ayirboshlash yo‘li bilan 5250000 pud; v) 1920-1921- yillarda oziq-ovqat razvyorstkasi vositasida belgilangan 22500000 pud o‘rniga 9700000 pud; g) 1921-1922 yillarda oziq-ovqat solig‘i hisoblangan 12500000 pud o‘rniga 4000000 pud g‘alla tortib olindi¹⁰.

G‘oziy Yunus milliy va davriy matbuot sahifalaridagi maqolalari orqali XX asr boshlaridagi Toshkentning asosan mahalliy millat bo‘lmish o‘zbeklar yashaydigan qismining iqtisodiy muammolarini dadil holda jamoatchilik diqqat markaziga olib chiqdi. U qaysi mavzuga qo‘l urishidan qat‘iy nazar, doimo milliy manfaatlar chegarasida turib fikr yuritdi va mustamlakachi hukumatdan yerli xalqning huquqlarini ta‘minlab qo‘yishni talab qildi.

⁹G‘oziy Yunus. G‘alla monopoliyasi va musulmonlar // “Ishtirokiyun” gazetasi. – 1919-yil 18-iyul. – № 136.

¹⁰ Q. Rajabov. Turkistonda ocharchilik oqibatlari // “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi. 2021-yil 29-oktabr. – № 44.